

## KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MENTAL ARIFMETIKA MASHG'ULOTLARINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Ashurov Ramzidin Ramazonovich**

BuxPXTI "Psixologiya" kafedrası

o'qituvchisi

[ashurovramzidin@gmail.com](mailto:ashurovramzidin@gmail.com)

### **Annotatsiya:**

*Maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirishda mental arifmetika mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlari, intellektual yuqori salohiyatli yosh avlodni tarbiyalashda dars mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o'quv predmetining mohiyatini yaxshiroq tushunishga o'rgatish haqida mulohaza yuritilgan. Yosh avlodning intellektual qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan turli fanlar orasida, bizningcha, mental arifmetika mashg'ulotlarini o'rganish alohida o'rin egallashi kerak. Dunyoning ba'zi mamlakatlarida, shu jumladan Yaponiya, Xitoyda mental arifmetika mashg'ulotlari maktab kurslariga kiritilgan. Bu mashg'ulotlarni o'quvchilarning yuqori salohiyatli, intellektual va shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida e'tirof etishimiz mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *mental arifmetika, kognitiv jarayonlar, o'quvchilar, intellektual rivojlanish.*

### **Аннотация:**

*В статье рассматриваются специфические особенности ментальной арифметической тренировки в развитии познавательных процессов детей младшего школьного возраста, обучение лучшему пониманию сущности предмета за счет использования инновационных технологий в воспитании подрастающего поколения с высоким интеллектуальным потенциалом. Среди различных предметов, направленных на формирование интеллектуальной способности подрастающего поколения, на наш взгляд, особое место должно занимать изучение ментальных арифметических упражнений. В некоторых странах мира, в том числе в Японии, Китае, в школьные курсы включены*

*упражнения по ментальной арифметике, которые можно признать средством высокопотенциального, интеллектуального и личностного развития учащихся.*

**Ключевые слова:** *ментальная арифметика, познавательные процессы, студенты, интеллектуальное развитие.*

### **Abstract:**

*The article discusses the specific features of mental arithmetic training in the development of cognitive processes of children of junior school age, teaching a better understanding of the essence of the subject through the use of innovative technologies in the education of the young generation with high intellectual potential. Among various subjects aimed at forming the intellectual ability of the young generation, in our opinion, the study of mental arithmetic exercises should occupy a special place. In some countries of the world, including Japan, China, mental arithmetic exercises are included in school courses. We can recognize these exercises as a means of high-potential, intellectual and personal development of students.*

**Key words:** *mental arithmetic, cognitive processes, students, intellectual development.*

### **KIRISH**

Mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichida yuqori darajadagi intellektual imkoniyatlarga ega bo'lgan malakali mutaxassislar tobora ko'proq talab qilinmoqda, salohiyatli kadrlarning bilim poydevori bevosita maktab davrida qo'yilgan tamal toshiga bog'liqdir. O'quvchilarning intellektual rivojlanish masalasi psixologik-pedagogik yondashuvlarning hozirgi kundagi asosiy mohiyatini tashkil qiladi. Maktab ta'limi kognitiv funktsiya sifatida ilmiy bilimlar tizimini ilmiy bilish usullari bilan qurollantirish bilan bir qatorda rivojlanuvchi funktsiyani ham amalga oshirishi kerak - o'quv sub'yektlari yordamida shaxsning individual resurslarini murakkablashtirish, kengaytirish imkoniyatini yaratmoqda.

Yosh avlodning intellektual qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan turli fanlar orasida, bizningcha, mental arifmetika mashg'ulotlarini o'rganish alohida o'rin egallashi kerak. Dunyoning ba'zi mamlakatlarida, shu jumladan Yaponiya, Xitoyda mental arifmetika mashg'ulotlari maktab kurslariga kiritilgan. Bu mashg'ulotlarni o'quvchilarning yuqori salohiyatli, intellektual va shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida e'tirof etishimiz mumkin. 50-yildan ortiq vaqt mobaynida mental arifmetika Yaponiya xalq ta'limi tizimida majburiy fanlar qatoriga kiritilgan. Qizig'i shundaki, maktabni tugatgandan so'ng, odamlar aqliy hisoblash bo'yicha malakalarini oshirishda davom

etadilar. Kunchiqar yurtda aqliy arifmetika sport turiga o'xshaydi. U hatto musobaqalarga ham mezbonlik qiladi. Rossiyada mental arifmetika bo'yicha xalqaro turnirlar ham har yili o'tkaziladi. Mental arifmetika umumiy madaniyatni, ayniqsa mantiqiy va kreativ fikrlashni tarbiyalashga qaratilgan mashg'ulotlar dasturi bo'lib, o'quvchilarning bilish jarayonlari bilan birgalikda bosh miyaning ikki yarim sharining baravar ishlash funksiyasini bajaradi. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish va barkamol insonni shakllantirish, ertangi taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Hayotga ziyrak ko'z bilan qaraydigan, teran fikrlovchi, mustaqil dunyoqarashga ega iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligidan darak beradi. Shuning uchun biz kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi aqliy jihatdan kamol toptirish lozimligini o'rganishga ahamiyat qaratdik. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga 7-11 yoshli bo'lgan (I-IV) sinflarning o'quvchilari kiradi. Bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanayotganda tayyorlanadi. Bunda u maktabda o'quvchilarga qo'yiladigan xar xil talabalar bilan tanishadi, fiziologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Ta'limga psixologik tayyorgarlik deganda bolaning obektiv va subektiv jihatdan maktab talabiga, ta'limiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta'limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Shuningdek, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi ravshanligi, sog'ligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolning yaqqolligi, tafakkurining yaqqolligi xotirasining kuchliligi, tafakkurning yorqinligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolaga diqqat nisbatan uzoq muddati va shartli barqaror bo'ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o'yinlarda rasm chizish va qurish-yashash mashg'ulotlarida loy hamda plastilindan o'yinchoqlar tayyorlashda matematik amallarni yeshichda, hikoya tinglash va tuzishda ko'rinadi. Bola o'z diqqatini muayyan obyektga yo'naltirish, to'plash taqsimlash bo'yicha ma'lum darajada ko'nikmaga ega bo'lib o'z diqqatini boshqarish va kerakli paytda to'plashga intiladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda murakkab o'quv materiallarini egallashda ma'lum bir qiyinchiliklar tug'diradi. Shuning uchun K. D Ushinskiy bolani faqat o'zini qiziqtirgan narsa bilan emas, balki, uni qiziqtirmagan narsa bilan ham mustahkamroq eslab qoladilar va uzoq muddat esda saqlaydilar. Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari ta'limiy materiallarning ichki bog'lanishlarga ahamiyat bermay ma'nosida tushunmay quruq eslab qoladilar. O'rganilayotgan materiallarni mantiqiy tahlil qilmay yoddaki o'zlashtiradilar buning sabablari quyidagicha:

- ❖ ularning mexanik xotirasi boshqa xotira turlariga qaraganda durustroq rivojlangani, ma'lumotlarni aynan o'zgarishsiz eslab qolish imkoniyatini yaratadi;
- ❖ o'quvchilar o'qituvchi qo'ygan vazifani anglab yetmaydilar natijada uning to'g'ri tushuntirib ber degan talabini so'zma-so'z takrorlash deb biladilar;
- ❖ ularning nutq boyligi etishmasligi (ilmiy atamalar va til qonuniyatlarini bilmasligi) materialni ijodiy to'ldirish unga qo'shimcha qilish imkoniyati yo'qligi uni so'zma-so'z qaytarishni osonlashtiradi;
- ❖ o'quvchilar matnni to'g'ri usullar yordamida eslab qolishni bilmaydilar.

Biz tadqiq qilayotgan mental arifmetika mashg'ulotlari o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga bevosita katta hissa qo'shadi. Maktabda o'tiladigan fanlar asosan miyaning chap yarim sharini rivojlantirishga qaratilgan va umuman ijodiy salohiyatni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan o'ng yarim sharning rivojlanishini yaxshi ta'minlamaydi. Aqliy arifmetika tufayli bolaning miyasi barkamol rivojlanish dasturini o'z ichiga oladi - chap yarim sharning analitik qobiliyatlari va o'ng yarim sharning vizual-fazoviy qobiliyatlari, bu butun intellektning tezroq rivojlanishiga yordam beradi. Matematika darsini tushunishni yaxshilaydi va berilgan misollarni tezkorlik bilan bajaradi. Bu jarayonda bola obrazli xotirasi orqali misollarni kalkulyatordan tezroq bajarib ko'rsata oladi. Tadqiqotimiz natijasida mental arifmetika mashg'ulotlariga borgan bolalarda quyidagi ijobiy xususiyatlar shakllanganligini ko'rishimiz mumkin:

- ✓ o'quvchilarda diqqat, iroda kuchi barqarorlashadi;
- ✓ muammolarga kreativ yondasha olish xususiyati paydo bo'ladi;
- ✓ arifmetik mashg'ulotlarni bajarish ko'nikmasi mustahkamlanadi;
- ✓ o'ziga baho berish yaxshilanadi;
- ✓ qo'l motorika harakatlari faollashadi;
- ✓ o'quvchilarning miyasi bir vaqtning o'zida bir nechta vazifalarga javob bera olish xususiyatlari shakllanadi.

Tadqiqotimiz davomida mental arifmetika mashg'ulotlariga borgan bolalarda ba'zi bir salbiy xususiyatlarni paydo bo'lganini ham aytishimiz mumkin:

- ✓ o'quvchilarda "MEN" lik norma holatidan og'ishini o'qituvchi o'quvchi, o'quvchi - o'quvchi, ota-ona - o'quvchi munosabatlarida ko'rishimiz mumkin;
- ✓ reaksiya tempining oshishi natijasida o'quvchilarda shoshqaloqlikning paydo bo'lishini kuzatishimiz mumkin;

Yuqorida ko'rib o'tgan salbiy sifatlarni o'z vaqtida bartaraf etish uchun ota-ona o'qituvchi hamkorligini oshirish orqali bartaraf etishimiz mumkin.

**Adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Аванесова, В.Н. Дидактические игры как форма организации обучения в детском саду [Текст] / В.Н. Аванесова; под ред. Н.Н. Поддьякова // Умственное воспитание дошкольника. – Москва: Наука, 1972. – 360 с.
2. Ахтырская, Ю.В., Большакова С.А. Теоретические основы дидактической игры как средство развития устойчивого внимания у детей дошкольного возраста / Ю.В. Ахтырская // Научные исследования: от теории к практике. - 2016. - № 3 (9). - С. 76-78.
3. Гаврина, С. Е. Развиваем внимание [Текст] / С.Е. Гаврина, Н. Л. Кутявина. - Москва: Академия развития, 2006. - 132 с.
4. Гонина, О.О. Психология дошкольного возраста. Учебник и практикум [Текст] / О.О. Гонина. - Москва: Юрайт, 2015. - 465 с.
5. Гонина, О.О. Психология: краткий курс лекций для бакалавров [Текст] / О.О. Гонина. - Москва: ООО "Издательство Спутник". - 102 с.
6. Гуткина, Н. И. Психологическая подготовка детей к школе [Текст] / Н.И. Гуткина. - Москва: Эксмо, 2003. - 208 с.
7. Керейтова, Ю.Д. Роль дидактических игр в развитии познавательных процессов дошкольников [Текст] / Ю.Д. Керейтова // Развитие современного образования: теория, методика и практика. - 2015. - № 4 (6). - С. 267-268.
8. Кирилина, Н.Ю., Федорова Т. В. Технология «Ментальная арифметика» в организации образовательной деятельности дошкольников. Из опыта работы [Электронный ресурс] / Н.Ю. Кирилина // Молодой ученый. — 2017. — №15.2. — С. 89-91. — URL <https://moluch.ru/archive/149/41625/> (дата обращения: 11.04.2019).
9. Мазепина, Т. Б. Развитие познавательных процессов ребенка в играх, тренингах, тестах [Текст] / Т. Б. Мазепина. - Ростов- на- Дону: Феникс, 2002. - 32 с.
10. Қодиров К. Мактаб таълимига етукликнинг психофизиологик жиҳатлари. Услубий қўлланма. - Т.: Мирзо Улуғбек номли ЎзМУ, 2009. -112-б.
11. Хурвалиева Т.Л. Мактабгача ёшдаги болаларнинг психик ривожланишига оид назариялар. ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ 2019, 7(80). 23-30 Б.
12. Баратов Ш.Р. Социально-психологические основы создания психологической службы в Узбекистане: Автореф. дис. ... докт. психол. наук. – Т., 1998. – 37 с.

13. Xarakter aksentuatsiyasi tushunchasining ijtimoiy-psixologik tahlili  
EDUCATION Scientific journal Mart 2022.663 bet
14. Yoshlarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlari  
EDUCATION Scientific journal Mart 2022.663 bet
15. Ashurov R.R. SPSS DASTURI YORDAMIDA TALABALARDA SHAXSLILIK SIFATLARINI TADQIQ QILISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI